FISKAL SIYOSATNI IJTIMOIY-IQTISODIY MAZMUNI

Mamurova M. *TDIU "Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish" kafedrasi tayanch doktoranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o`rta muddatli fiskal siyosatning mazmuni va uni joriy qilishnining ob'yektiv zarurligi asoslangan. O`zbekistonda o`rta muddatli byudjet daromad va xarajatlarini prognozlashtirishning tashkiliyiqtisodiy asoslari tahlil qilingan.*

***Kalit so`zlar:*** *o`rta muddatli fiskal siyosat, prognoz, rejalashtirish, byudjetni operativ boshqarish, unumdorlik printsipi, byudjetlashtirish.*

Qadimgi yunon faylasufi Demokritning fikricha, «siyosat» – davlatni idora etish, boshqarish mahoratidir. Platonning fikricha, siyosat- davlatni boshqarish san'atidir, ya'ni podshohning odamlarni boshqarish sohasidagi bilim va qobiliyatidir- deb ta'riflaydi.

Moliyaviy siyosat iqtisodiy siyosatning muhim elementi, tarkibiy qismi hisoblanadi. Moliyaviy siyosat avvalo istiqbol uchun belgilangan va bajarilishi ko'zda tutilgan muammolarni hal qilish va maqsadlarga erishish uchun moddiy asos bo'lgan moliyaviy resurslarning maksimal miqdorini shakllantirishga qaratiladi. Moliyaviy siyosat mustaqil va ko'pincha belgilanadigan, o'ziga xos siyosat turi sifatida qaraladi. So'nggi yillarda olimlarning nazariy ishlanmalarida, moliyaviy siyosatga aniqlik kiritishda, davlatning moliyaviy resurslarni jalb qilishdagi roliga va shuningdek moliyani tashkil qilishning shakllari va usullariga e'tibor qaratilmoqda.

Davlat har qanday o'zining vazifalari bo'yicha aniq maqsadlarga erishish uchun moliyadan foydalanadi. O'rnatilgan maqsadlarni amalga oshirishda moliyaviy siyosat muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy siyosatni ishlab chiqish va uni amalda qo'llash jarayonida o'rnatilgan vazifalarni amalga oshirish shart sharoitlari ta'minlanadi. Ular iqtisodiy manfaatga ta'sir qilishning faol quroli sifatida ishtirok etadi. Moliyaviy siyosat ko'p qirralidir. U quyidagi muhim bo'g'inlarni o'z ichiga oladi:

1. **Moliya tizimi taraqqiyotining ilmiy asoslangan kontseptsiyalarini ishlab chiqish.** Ushbu ilmiy kontseptsiya iqtisodiy qonunlar talablarini taqiq qilish, iqtisodiy agentlar faoliyati, ularning rivojlanish tendentsiyalarini atroflicha tahlil qilish, fuqarolik jamiyati ehtiyojlarining holati va rivojlanish istiqbollarini kompleks baholash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Istiqboldagi va joriy davrda moliyadan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash. Bunda xalqaro omillar, moliyaviy resurslarni o'sish imkoniyatlarini hisobga olingan holdagi iqtisodiy siyosatda ko'zda tutiluvchi o'rnatilgan maqsadlarga erishish yo'llaridan kelib chiqadi.

Bunda moliyaviy siyosatning turlari, uning jamiyat iqtisodiy bazisi ustqurtmasiga xosligidan dalolat beradi. Chunki har qaysi turlari turli iqtisodiy tizimlar yoki shart-sharoitga muvofiq shakllantiriladi.

Klassik tavsifdagi moliyaviy siyosat klassik siyosiy iqtisodchilar A. Smit (1723–1790) va D. Rikardo (1772–1823) asarlaridagi g'oyalariga asoslangan. Uning asosiy yo'nalishi - iqtisodiyotga davlatning aralashmaslik, erkin raqobatni qo'llab-quvvatlash, bozor mexanizmini iqtisodiy jarayonlarning asosiy regulyatori sifatida qo'llashga asoslangan. Klassik tavsifdagi moliyaviy siyosat davlatning iqtisodiyotga aralashuvi cheklangan sharoitda, iqtisodiyotning bozor qonuniyatlariga asoslangan holdagi taraqqiyotni ta'minlovchi va davlatning jamiyatni siyosiy instituti sifatidagi faoliyati imkon darajasida cheklanuvchi iqtisodiy tizim sharoitidagi olib boriladigan moliyaviy siyosat hisoblanadi. Klassik tavsifdagi moliyaviy siyosatning bosh doktrinasi Klassik siyosiy iqtisodchi olimlarning g'oyalari hisoblanadi.

Hozirgi zamonaviy sharoitlardagi Monetarizm, Liberalizm yoki Neoliberalizm g'oyalari asosidagi moliyaviy siyosat ham klassik tavsifdagi moliyaviy siyosatning yangi formasi sifatida talqin qilinadi.

Xulosa. Amaliy faoliyatlarni muvofiqlashtirish. Bunda o'rnatilgan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan amaliy faoliyatlarni tashkiliy asoslari ko'zda tutiladi.

Yuqoridagi 3 bo'g'inlarning yahlitligi moliyaviy siyosatni mazmunini aniqlab beradi. istiqbolsiz moliyaviy siyosat moliyaning rivojlanishini asosiy kontseptsiyalarini to'laqonli ravishda mukammalashtirmaslik oqibatlari hisoblanadi.

Hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalarning xarakteriga, murakkabligiga va davrini uzoqligiga qarab, moliyaviy siyosat:

1. Moliyaviy strategiya.
2. Moliyaviy taktikaga bo'linadi.

Davlatning moliyaviy siyosati makroiqtisodiy siyosatning bosh elementlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi sharoitda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan moliyaviy siyosat islohotlarning o'tish davridagi moliyaviy iqtisodiy inqirozlar oqibatlarini tugatish va mamlakatdagi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

2. Fayzullayev Yo.Sh., Azizova I.A., Byudjetni o`rta muddatli rejalashtirish.- Toshkent: 2010.

3. Azizova I.A. Natijaga yo`naltirilgan byudjetlashtirish.O`quv yo`llanma. T.:InfoCOM.UZ MChJ nashriyoti, 2010.

4. Dall Forsythe. Performance Management Comes to Washington: A Status Report on the Government Performance and Results Act. The Nelson A. Rockefeller Institute of Government, 2000.

5. IMF, 2014. Fiscal Multipliers: Size, Determinants, and Use in Macroeconomic Projections. Fiscal Affairs Department, Technical Notes and Manuals. International Monetary Fund, Washington. April 2014.

6. www.mf.uz. – O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.